

ZARARNI QOPLASH VA TOVON UNDIRISH MUALLIFLIK HUQUQLARINI HIMOYA QILISH USULI SIFATIDA

Omonkeldiyeva Sevara Odiljon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xususiy huquq fakulteti talabasi

sevaraomonkeldiyeva2002@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda dolzarb mavzulardan biri boʻlib kelayotgan mualliflik huquqini himoya qilish usuli boʻlgan zararni qoplash hamda tovon undirishning mohiyati, mazkur usullarning huquqiy jamiyat uchun ahamiyati va oʻrni qanchalik yuqori ekanligi tahlillar va izlanishlar asosida ochib berilgan. Shuningdek, mazkur maqolada mualliflik huquqining buzilishiga sabab boʻluvchi holatlar va ularni bartaraf etish uchun choralar, mualliflik huquqining buzilishi yuzasidan kelib chiqqan nizolarning sud tomonidan qay tartibda hal etilishi, zararni qoplash va tovon undirishning farqlari, mualliflik huquqini himoya qilish uchun qoʻllanilayotgan xorij tajribasi va taniqli olimlarning yondashuvlari, ilmiy qarashlari oʻrganilgan.

Kalit soʻzlar: mualliflik huquqi, zarar, tovon undirish.

DAMAGES AND COMPENSATION AS A WAY TO PROTECT COPYRIGHT

Omonkeldiyeva Sevara Odiljon qizi

Tashkent State University of Law

Student of Private law Faculty

sevaraomonkeldiyeva2002@gmail.com

Abstract. In this article, the nature of damage compensation and compensation collection, which is one of the topical topics today, as well as the significance and role of these methods for the legal society, is revealed on the basis of analyzes and researches. Also, in this article, the circumstances that cause the violation of copyright and the measures to eliminate them, how disputes arising from the violation of copyright are resolved by the court, the differences between compensation and compensation, foreign experience used for the protection of copyright and the approaches and scientific views of famous scientists were studied.

Keywords: copyright, damage, compensation.

KIRISH

Qadim zamonlardan boshlab inson o'z aqliy salohiyatidan foydalangan holda turli mualliflik huquqi bilan aloqador fan, adabiyot, san'at mahsulotlarini yaratib kelgan. Lekin bu mahsulotlarning huquqiy himoyasi yaqin zamonlargacha qonun bilan muhofaza qilinmaganligi barchamizga ayon. Texnologiyalashtirish asri kirib kelib, u rivojlangani sari mualliflik huquqi bilan bog'liq mahsulotlarning muhofazalanishi nisbatan qiyinlashganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Bunga sabab fan, adabiyot va san'at mahsulotlarining ma'lum bir shaklga kelganligidan so'ng, uni noqonuniy va muallifning ruxsatisiz o'zlashtirish, tarqatish kabi holatlar ko'payib bordi. Va shunday vaziyatlardan boshlab, mualliflik huquqining himoya qilish, buzilgan huquqni tiklash choralariga nisbatan ehtiyoj yuzaga kela boshladi. Shundan so'ng, mualliflik huquqini himoya qilish va uni ta'minlash bo'yicha qonun hujjatlarini qabul qilish, mavjud qonun hujjatlarini takomillashtirish bilan bog'liq chora-tadbirlar ko'rila boshladi. Bunga misol tariqasida 1971-yilda qabul qilingan «Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to'g'risida»gi Bern Konvensiyasi qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi ushbu Konvensiyaga Oliy Majlisning 2004-yil 27-avgustdagi 681-II-sonli «Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to'g'risidagi Bern Konvensiyasiga qo'shilish haqida»gi Qaroriga asosan qo'shilgan. Ushbu Konvensiyaning ahamiyatga molik jihati quyidagicha, 6^{bis}-moddaning 1- va 2-qismlariga muvofiq, «muallifning mulkiy huquqlaridan qat'iy nazar va u hatto bu huquqlardan voz kechgan taqdirda ham muallif o'z muallifligining e'tirof etilishini talab qilish hamda ushbu asarni soxtalashtirish, buzib ko'rsatish yoki boshqa o'zgartirishlarga qarshi chiqish, shuningdek, muallifning izzat-nafsi yoki obro'siga ziyon yetkaza oladigan har qanday boshqa tajovuzlarga qarshilik ko'rsatish huquqiga ega bo'ladi. (2) Avvalgi band asosida muallifniki deb e'tirof etilgan huquqlar uning vafotidan keyin aqalli mulkiy huquqlarining amal qilish muddati to'xtatilgunga qadar o'z kuchini saqlab qoladi va ushbu asarga nisbatan muhofaza talab qilib olingan mamlakat qonunchiligi huquqlarga vorislik qilish vakolatini bergan shaxslar yoki idoralar tomonidan amalga oshiriladi.»¹ Demak, mualliflik huquqining buzilishiga qarshi choralarni ko'rish, uning javobgarlik masalalari muallifning qachon talab qilishidan qat'iy nazar ko'rib chiqilishi lozim. Hatto, muallifning vafot etishi ham mualliflik huquqining himoya qilinishi uchun hech qanday to'siq bo'la olmaydi. Bu Konvensiya O'zbekiston Respublikasi ham

¹ <https://lex.uz/acts/-1310607>

ratifikatsiya etganligini inobatga oladigan bo'lsak, bu biz uchun ham taalluqli bo'lgan holatdir.

MUHOKAMA TA TAHLIL NATIJALARI

Mualliflik huquqi shaxsning shaxsiy nomulkiy huquqi ekanligi hech birimizga sir emas. Bundan tashqari muallif uchun asardan foydalanishi, undan haq olishi yoki boshqacha usullarda foydala olishi uchun unga hech bir to'siq qo'yilmagan, bundan ayrim holatlar istisno hisoblanadi. Demak, fan, san'at va adabiyot sohasidagi mahsulotlardan erkin foydalanish muallifning mutlaq huquqi hisoblanadi. Mualliflik huquqini intellektual mulk huquqining tarkibiy qismi bo'lib, qonunchiligimizda mualliflik huquqi bilan bog'liq huquqiy munosabatlar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi bilan tartibga solinadi. Shu bilan bir qatorda, boshqa qonun hujjatlari va normativ-huquqiy hujjatlar asosida tartibga solinadi. Mualliflik huquqi uchun Kodeksda alohida bob ajratilgan bo'lib, 1041-moddadan 1073-moddagacha qamrab olingan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida»gi 42-sonli Qonuni ham mualliflik huquqi bilan bog'liq huquqiy munosabatlarga nisbatan qo'llaniladi.

Endigi navbatda, mualliflik huquqini buzilishiga qarshi qo'llaniladigan himoya usullariga to'xtaladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasining «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida»gi Qonunning 65-moddasida belgilanishicha, muallif, turdosh huquqlar egasi yoki mutlaq huquqlarning boshqa egasi huquqbuzardan quyidagilarni talab qilishga haqli:

- huquqlarni tan olishini;
- huquq buzilishidan oldingi holatni tiklashini va huquqni buzadigan yoki uning buzilishi xavfini yuzaga keltiradigan harakatlarni to'xtatishini;
- huquq egasining huquqi buzilmagan taqdirda, u fuqarolik muomalasining odatdagi sharoitlarida olishi mumkin bo'lgan, lekin ololmay qolgan daromadi miqdoridagi zararlarining o'rnini qoplashini. Agar huquqbuzar mualliflik huquqi yoki turdosh huquqlarni buzish oqibatida daromadlar olgan bo'lsa, huquq egalari boshqa zararlar bilan bir qatorda boy berilgan foydani bunday daromadlardan kam bo'lmagan miqdorda qoplashini;

- zararlar yetkazilishi faktidan qat'i nazar, huquqbuzarlikning xususiyati va huquqbuzarning aybi darajasidan kelib chiqib ish muomalasi odatlarini hisobga olgan holda zarar qoplanishi o'rniga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan ming baravarigacha miqdorda to'lanishi lozim bo'lgan tovonni to'lashini;
- ushbu Qonunda belgilangan huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq bo'lgan, qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa choralar ko'rishini.

Muallif va ijrochi o'z huquqlari buzilgan taqdirda, huquqbuzardan ma'naviy ziyon qoplanishini talab qilishga haqlidir. Mualliflik huquqi yoki turdosh huquqlar buzilishining oldini olish yoki uni to'xtatish uchun zarur choralar ko'rish natijasida uchinchi shaxslarga yetkazilgan zararlar, shuningdek bunday choralarni amalga oshirgan shaxs ko'rgan zararlar huquqbuzar hisobidan undirib olinishi kerak.² Demak, mualliflik huquqining buzilishi natijasida mualliflik huquqbuzardan zararni, agar huquqbuzar uning mualliflik huquqi mavjud bo'lgan mahsulotidan daromad olgan bo'lsa, shu daromaddan kam bo'lmagan miqdorda boy berilgan foydani hamda tovon va ma'naviy zararni undirishni talab qilish huquqiga ega bo'ladi.

Tahlil qilishimiz davomida zararni to'lash va tovon undirish o'rtasida qanday farq borligi to'g'risida asosli savol tug'ilishi mumkin. Zarar tushunchasi barchamiz uchun tanish va u Fuqarolik Kodeksining 14-moddasiga ko'ra, haqiqiy va boy berilgan zarar sifatida turlarga ajratiladi. Huquqi buzilgan muallif o'z tovon va ma'naviy zararni qoplashni talab qilishidan ham tashqari yetkazilgan zararni hamda boy berilgan zararni qoplashini ham sud orqali talab qilishga haqli hisoblanadi. Endigi masala – tovon undirish. Tovu undirish to'g'risida, aynan mualliflik huquqining buzilishida qanday tartibda undirilishi mumkin ekanligi haqida batafsil tushunchalar belgilanmagan bo'lsada, tovon undirish muallifning huquqi ekanligi «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida»gi Qonunida ko'rsatib o'tilgan. Tovu undirish nima va qanday tartibda amalga oshirilishiga xorij qonunchiligiga murojaat qilgan holda tushuncha hosil qilishimiz maqsadga muvofiq. “Kompensatsiya - bu zararni qoplashning muqobil himoyasi. Boshqacha qilib aytganda, huquq egasi zararni undirishni yoki tovon to'lashni talab qilishi mumkin. Biroq, mualliflik huquqi buzilgan hollarda tovon miqdorini bir qator sabablarga ko'ra isbotlash qiyin. Kompensatsiyani undirish uchun zarar miqdorini isbotlash shart emas, bu esa muallifning huquqlarini himoya qilishni sezilarli darajada

² <https://lex.uz/docs/-1022944#-1023242>

osonlashtiradi.”³ Shuningdek, rus qonunshunoslarining fikricha, tovon undirish zararni to'lashni talab qilishga nisbatan osonroq, deb hisoblashadi. Bunga asos sifatida, tovon undirish uchun dalillarni sudga taqdim etish nisbatan qulay va kam vaqtni talab qilishni olishadi. Zarar undirishda esa, sudga zararning qancha miqdorda ekanligi hamda boy berilgan foydaning taxminiy miqdorini hisoblab berish bir qancha vaqt olishi bilan o'z fikrlarini ma'qullashadi.

Biroq, e'tibor berishga molik jihat ham mavjud. Rossiya Oliy Sudining 5-sonli Plenum qaroriga ko'ra, kompensatsiya sud tomonidan maqullanishi kerak. Kompensatsiya miqdorini belgilashda sud quyidagi mezonlarni hisobga oladi: Birinchidan, bu sodir etilgan huquqbuzarlikning tabiati. Ikkinchidan, intellektual faoliyat natijasidan noqonuniy foydalanish davri. Uchinchidan, hisobga olingan mezonlar ro'yxati jinoyatchining aybdorlik darajasini o'z ichiga olishi mumkin.⁴

Rossiya Federatsiyasida mualliflik huquqining buzilishi jiddiy masala sifatida qaraladi. Mualliflik huquqini buzganligi uchun huquqbuzarga nisbatan ikki xil usulda: 1. Ma'muriy tartibda: fuqarolar uchun - 2000 rublgacha; mansabdor shaxslar uchun - 20 000 rublgacha; tashkilotlar uchun - 40 000 rublgacha zararni qoplash; 2. Jinoiy (katta zarar yetkazilganda) - 200 000 rublgacha jarima; majburiy ish - 480 soatgacha; axloq tuzatish ishlari - 24 oygacha; hibsga olish - olti oygacha. Jinoyat guruh yoki guruh tomonidan sodir etilgan bo'lsa, javobgarlik choralari kuchaytiriladi.⁵ Bizning qonunchiligimizga ko'ra, huquqbuzar Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksning 171¹-moddasiga ko'ra, asarlardan yoki turdosh huquqlar obyektlaridan qonunga xilof ravishda foydalanish, xuddi shuningdek asarlarning yoki turdosh huquqlar obyektlarining kontrafakt nusxalarini takrorlash, tarqatish, barchaning e'tiboriga yetkazish yoxud asarlarning yoki turdosh huquqlar obyektlarining nusxalarida ularning tayyorlovchilari haqida, ularni ishlab chiqarish joylari to'g'risida, shuningdek mualliflik huquqining va turdosh huquqlarning egalari haqida yolg'on axborotni ko'rsatish, — asarlarning va turdosh huquqlar obyektlarining kontrafakt nusxalarini, shuningdek ularni takrorlash hamda tarqatish uchun foydalaniladigan materiallar va uskunalarni hamda boshqa huquqbuzarlik sodir etish qurollarini musodara qilib, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining bir

³ <https://sumip.ru/wp-content/images/schemes/copyprot3.gif>

⁴ International Journal of Humanities and Natural Sciences, vol. 3-1 (54), 2021

⁵ <https://www.klerk.ru/blogs/rosco/526372/>

baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Xuddi shunday huquqbuzarliklar ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, asarlarning va turdosh huquqlar obyektlarining kontrafakt nusxalarini, shuningdek ularni takrorlash hamda tarqatish uchun foydalaniladigan materiallar va uskunalarni hamda boshqa huquqbuzarlik sodir etish qurollarini musodara qilib, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — o'n baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'lishi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 149-moddasida ham mualliflik huquqini buzish jinoyat sifatida belgilab qo'yilgan.

Demak, bulardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, zararni to'ltirish va tovon undirishning bir-biridan farqi ularni amalga oshirish tartibiga bog'liq ekan. Zararni to'lashni talab qilishda sudga mualliflik huquqi buzilishi yuzasidan da'vogar mahsulotning muallifi aynan u ekanligini isbotlab berishi lozim. Shu bilan bir qatorda, huquqni talab qilish masalasi aynan bir da'vo sifatida sudga ko'rib chiqilishi mumkin. Lekin aynan qanday usul orqali mualliflik huquqini isbotlash masalasi mavhum. Tovu undirishda esa yo'qotishlar mavjudligini isbotlash va ularning hajmini asoslash zaruriyati yuzaga keladi hamda u sud tomonidan maqbul deb topilganda undirib beriladi.

Mualliflik huquqini buzilishiga oid sud amaliyotlarini ko'rib chiqsak, taniqli shoir Usmon Azim hamda san'atkor Sanjar Djavberdiyevning apellyatsiya tartibida ko'rib chiqilgan sud ishini misol tariqasida olishimiz mumkin. Da'vogar Azimov Usmonqul «Karvon» nomli mualliflik huquqi bilan himoyalangan she'rini ruxsatsiz va o'rtada birorta shartnoma tuzmasdan foydalanmaganligi uchun xonanda Sanjar Djavberdiyev ustidan da'vo arizasi bilan Toshkent shahar fuqarolik sudiga murojaat qilgan. Birinchi instansiya sudi da'vogarning foydasiga hal bo'lgan va da'vogar Javobgar Djavberdiyev Sanjar Anvarjonovichdan Azimov Usmonqul foydasiga qonun hujjatlarida belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining 200 (ikki yuz) baravari miqdorida tovon puli va 40.000.000 so'm ma'naviy zarar undirilgan. Javobgar Djavberdiyev Sanjar Anvarjonovichdan davlat foydasiga 3.240.000 so'm miqdorida davlat boji undirilishi to'g'risida hal qiliv qarori qabul qilingan. Apellyatsiya sud instansiyasida da'vogar talabi bilan ish qayta ko'rib chiqilgan bo'lsada, sud O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunning 38-moddasiga asosan Ushbu Qonun 19-moddasining

uchinchi qismida nazarda tutilgan mulkiy huquqlar faqat mualliflik shartnomasini tuzish yo'li bilan huquq egasi tomonidan boshqa shaxsga o'tkazilishi mumkinligi, mazkur Qonunning 65-moddasi 1-qismi uchinchi va beshinchi xatboshilarida muallif, turdosh huquqlar egasi yoki mutlaq huquqlarning boshqa egasi huquqbuzardan huquq buzilishidan oldingi holatni tiklashini va huquqni buzadigan yoki uning buzilishi xavfini yuzaga keltiradigan harakatlarni to'xtatishini, zararlar yetkazilishi faktidan qat'i nazar, huquqbuzarlikning xususiyati va huquqbuzarning aybi darajasidan kelib chiqib ish muomalasi odatlarini hisobga olgan holda zarar qoplanishi o'rniga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan ming baravarigacha miqdorda to'lanishi lozim bo'lgan tovonni to'lashini talab qilishga haqli ekanligi hamda Fuqarolik Kodeksining 1021-1022-moddalariga tayangan holda ma'naviy zarar undirish yuzasidan chiqarilgan birinchi instansiya sudi hal qiluv qarori o'zgarishsiz qoldirilishi to'g'risida ajrim chiqargan.⁶ Ushbu sud ishidan ko'rinib turibdiki, muallifning roziligini olmasdan yoki u bilan shartnoma tuzmasdan turib uning mualliflik asaridan foydalanish haqiqiy zarar, tovon, ma'naviy zararining undirilishiga sabab bo'ladi. Shu bilan bir qatorda da'vogar javobgardan uning mualliflik huquqi bilan himoya qiinuvchi asaridan foydalanishni va uni tarqatishni to'xtatishni ham talab qilish huquqiga ega. Shu sababdan ham xonandaning «Karvon» nomli qo'shig'i barcha ijtimoiy tarmoqlardan olib tashlandi.

Yana bir sud amaliyotidan misol keltiradigan bo'lsak, 2-1701-2202/20559-sonli fuqarolik ishida da'vogar javobgarni uning mualliflik huquqi bilan himoyalangan she'rini noqonuniy ravishda o'zlashtirganligi, o'rtada hech bir shartnoma imzolanaganligi hamda she'rning jumllalarini sho'rning ruxsatisiz o'zgartirganligi yuzasidan ayblab, da'vo arizasi bilan murojaat qilgan. Ushbu sud ishi ham da'vogarning foydasiga hal qilingan bo'lib, 50.000.000 so'm ma'naviy zarar uchun kompensatsiya, qonun hujjatlarida belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining 300 (uch yuz) baravari miqdorida tovon puli, mazkur da'vo ariza bilan murojaat qilishda to'langan 600.000 so'm miqdorida davlat boji, jami 140.600.000 so'm undirilishi to'g'risida hal qiluv qarori qabul qilingan. Sud o'z xulosasini O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunning 38-moddasiga asosan Ushbu Qonun 19-moddasining uchinchi qismida nazarda tutilgan mulkiy huquqlar faqat mualliflik shartnomasini tuzish yo'li bilan huquq egasi tomonidan boshqa shaxsga o'tkazilishi mumkinligi, mazkur Qonunning

⁶<https://public.sud.uz/report>

65-moddasi 1-qismi uchinchi va beshinchi xatboshilari hamda Fuqarolik Kodeksining 1021-1022-moddalariga tayangan holda asoslantirgan.⁷

Yuqorida ko'rib turganimizdek, sud ishlarida javobgardan da'vogarning mualliflik huquqi bilan himoyalangan asaridan foydalanishni man qilish, da'vogar foydasiga zarar undirish, tovon to'lattirish, shu bilan bir qatorda, ma'naviy zararni undirishni ham talab qilish orqali mualliflik huquqini tiklashimiz mumkin.

XULOSA

Maqolamizga xulosa bilan yakun yasaydigan bo'lsak, shuni aytishimiz mumkinki, jamiyatimizda mualliflik huquqi bilan fan, adabiyot va san'at mahsulotlarining himoyalaniishi sekin-astalik bilan rivojlanib borayotganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Mualliflarning mehnatiga nisbatan hurmat tuyg'usining shakllanib borishi insonlarning ongiga ham o'z ta'sirini o'tkazib bormoqda va mualliflar o'z asarlarining noqonuniy ravishda o'zlashtirilayotgani uchun sudga murojaat qilishlari nisbatan oshib borayotganining guvohi bo'lishimiz mumkin. Jamiyatimizda mualliflarning mehnatini qadrlashning rivojlanayotganligiga oddiy misol keltiradigan bo'lsak, ijtimoiy tarmoqdan foydalanuvchi o'zlarining shaxsiy sahifasiga ega bo'lgan bloggerlar ham mualliflik huquqi bilan himoyalangan asarlar yoki fan adabiyotlarini tarqatmayotganligi ijobiy namuna, deb atay olamiz.

Yanada takomillashtirilishi lozim deb hisoblaydigan masalalarimizga to'xtalsak, mualliflik huquqi buzilgan mualliflarning obyekt hisoblangan mahsulotga nisbatan haqiqatdan mualliflik huquqi mavjud ekanligini isbotlashi asosiy masala bo'lib hisoblanmoqda. Muallifning mahsulotga nisbatan huquqini isbotlash tartibi yoki usuli aniq ma'lumotlar bilan qonun hujjatlarida belgilab qo'yilmagan. Keyingi muammoli masala – tovon undirish. Tovu undirishning belgilangan eng kam miqdori qonun hujjatlarida konkret belgilanmagan, lekin tovon undirishning talab qilinishi muallifning huquqi hisoblanishi belgilab o'tilgan. Eng kam miqdorning belgilanmasligi, da'vogar va javobgarning sud xulosasidan norozi bo'lishi, sudlar uchun esa ishning xususiyatini baholashga nisbatan qiyinchiliklarga sabab bo'lishi kundek ravshan.

Mualliflik huquqining rivojlanib borayotganligi quvonarli holat, shu bilan bir qatordan mualliflik huquqi sohasini yanada takomillashtirishimiz uchun yuqorida

⁷ <https://public.sud.uz/report>

keltirib o`tgan ikki taklifimizni ham amaliyotga tashkil etish hamda tatbiq qilishimiz maqsadga muvofiq, deb hisoblayman.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi;
2. O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonun;
3. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeks;
4. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi;
5. Мехмонов, К. М. (2019). Искусственный интеллект как объект интеллектуальной собственности.
6. Abdikhakimov, I. (2023). Legal Aspects of Social Media Marketing Contracts. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 4(1), 125-130.
7. Toshmuxammatov, A., & To'xtayev, O. K. (2022). JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING IJTIMOIIY VA HUQUQIY ZARURIYATI. *Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal*, 1(1), 5-16.
8. Imomniyozov, D. B. O. G. L., & Atalikova, G. S. (2022). INGLIZ VA MILLIY HUQUQIMIZDA SHARTNOMAVIY JAVOBGARLIKNING ASOSLARI. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(2), 84-95.
9. <https://lex.uz/acts/-1310607>
10. Мехмонов, К. (2018). ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВАЯ ЗАЩИТА БАЗЫ ДАННЫХ ПО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВУ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН. *Review of law sciences*, (1), 54-57.
11. <https://lex.uz/docs/-1022944#-1023242>
12. Abdikhakimov, I. (2023, January). Trademark and copyright infringements in social media. In *Science-Zone Online Conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 187-200).
13. <https://sumip.ru/wp-content/images/schemes/copyprot3.gif>
14. Doniyorbek, I. (2022). MAJBURIYATNI BAJARMAGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKNI QO'LLASH MUAMMOLARI. *International Journal of Humanities and Natural Sciences*, vol. 3-1 (54), 2021
15. <https://www.klerk.ru/blogs/rosco/526372/>
16. <https://public.sud.uz/report>
17. Abdixakimov, I. (2022). Cyber Crimes in Digital Economy. *Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal*, 1(1), 1-5.